


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2020- yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5 trln. 515,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 113,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (89,4 %) ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 20,2 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 10,3 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 18,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 13,3 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining  
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 215,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ini tashkil etdi.


**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan I-II-III-IV-choraklar, % da*



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

*Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da*






**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	249,1	263,7	14,6
Neft, ming t.	82,0	60,0	-22,0
Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.	31,1	27,8	-3,3
Qum, ming t.	50,0	50,4	0,4
Chaqiq tosh, ming t.	82,5	104,6	22,1
Yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.	0,2	9,7	9,5

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 trln. 929,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



2019- yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida - 0,1 %), o'rtta-yuqori texnologiyali - 0,6 % (0,3 %), o'rtta-quyi texnologiyali - 19,9 % (21,3 %) va quyi texnologiyalisi - 68,7 % (65,0 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,6 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 164,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 47,0 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,7 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,9 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 275,1 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi  
mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**

2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,5 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 191,3 %), 43,7 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (121,4 %), 133,3 ming tonna un (106,5 %), 167,8 ming tonna portlandsement (1,4 m.) ishlab chiqarilib yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar  
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	12,8	24,5	11,7
Tozalangan paxta yog'i, <i>ming t.</i>	6,8	8,8	2,0
Un, <i>ming t.</i>	125,1	133,3	8,2
Portlandsement, <i>ming t.</i>	12,5	167,8	155,3
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	9,9	1,8	-8,1
Sariyog', <i>t.</i>	2,6	3,3	0,7

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

*2020- yilning yanvar-dekabr oylarida*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 291,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,3 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 45,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**


*yil boshidan I-II-III-IV-choraklar, % da*



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	3,0	0,005	2,99
Issiqlik energiyasi, ming g.kal	66,3	33,6	-32,7

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
yil boshidan I-II-III-IV-choraklar, % da




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,7	3,7	1,0

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
<b>Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm</b>	14,6	21,9	7,3

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 49,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 39,7 % ga oshganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 trln. 32,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,7 % ga o'sgan holda uning jami sanoatdagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.


















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,5 % (2019- yil yanvar-dekabr oylarida 2,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 22,4 % ni, shuningdek, Denov tumani 15,5 % ni, Sho'rchi tumani 14,2 % ni, Jarqo'rg'on tumani 8,0 % ni hamda Termiz tumani 6,1 % ni tashkil etdi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
*2020- yilning yanvar-dekabr oylarida*

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	454,6	22,4	112,3		71,5	3,5	117,7
<b>Termiz shahri</b>				<b>Angor</b>			
	2,9	0,1	127,8		65,0	3,2	115,3
<b>Bandixon</b>				<b>Boysun</b>			
	314,1	15,5	105,3		162,7	8,0	111,1
<b>Denov</b>				<b>Jarqo'rg'on</b>			
	93,9	4,6	139,5		53,2	2,6	121,3
<b>Qumqo'rg'on</b>				<b>Qiziriq</b>			
	44,7	2,2	121,3		74,5	3,7	116,8
<b>Muzrabot</b>				<b>Oltinsoy</b>			
	98,5	4,8	115,5		123,7	6,1	112,4
<b>Sariosiyo</b>				<b>Termiz</b>			
	75,2	3,7	118,1		109,3	5,4	111,0
<b>Uzun</b>				<b>Sherobod</b>			
	288,6	14,2	102,6				
<b>Sho'rchi</b>							














Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati (viloyat o'sish sur'ati 111,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (139,5 %), Oltinsoy (116,8 %), Bandixon (127,8 %), Qiziriq (121,3 %), Muzrabot (121,3 %), Sariosiyo (115,5 %), Boysun (115,3 %), Uzun (118,1 %), Termiz (112,4 %), Angor (117,7 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (112,3 %) qayd etildi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 trln. 82,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19,6 % ni tashkil etdi.


**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**  
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mlrd. soʻm			Ulushi % da			Oʻsishi % da		
	5515,9			100,0			113,9		
<b>Surxondaryo viloyati *</b>									
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	1160,6	21,0	110,3		123,6	2,2	106,2		
<b>Termiz shahri</b>				<b>Angor</b>					
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	6,2	0,1	105,9		98,4	1,8	104,1		
<b>Bandixon</b>				<b>Boysun</b>					
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	869,4	15,7	104,9		1019,4	18,5	105,1		
<b>Denov</b>				<b>Jarqoʻrgʻon</b>					
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	369,3	6,7	131,1		75,3	1,4	116,4		
<b>Qumqoʻrgʻon</b>				<b>Qiziriq</b>					
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	190,2	3,4	122,8		113,4	2,1	105,9		
<b>Muzrabot</b>				<b>Oltinsoy</b>					
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		
	294,6	5,3	102,3		151,8	2,8	104,8		
<b>Sariosiyo</b>				<b>Termiz</b>					

\* Hududlar boʻyicha taqsimlanmagan maʼlumotlarni qoʻshgan holda


	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	115,4	2,1	116,3
<b>Uzun</b>			

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	449,6	8,2	105,2
<b>Sherobod</b>			

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	478,7	8,7	115,0
<b>Sho'rchi</b>			

**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 131,1 %), Muzrabot (122,8 %), Qiziriq (116,4 %), Uzun (116,3 %), Sho'rchi (115,0 %) tumanlarida va Termiz shahrida (110,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**








Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,0 % i), Jarqo'rg'on (18,5 %) hamda Denov (15,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.










Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,1 %), Qiziriq (1,4 %) hamda Boysun (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (6 405,2 ming so'm), Jarqo'rg'on (4 633,8 ming so'm), Denov (2 237,9 ming so'm), Sherobod (2 301,9 ming so'm) hamda Sho'rchi (2 273,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 077,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 765,5 ming so'm bo'lgani holda Termiz shahrida – 2 508,7 ming so'mni, Termiz tumanida – 1 589,7 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1 370,2 ming so'mni, Denov tumanida – 808,6 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so'm**



	<b>Sanoat mahsulotlari</b>		<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	
	2020- yil yanvar-dekabr	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	2019- yil yanvar-dekabr
<b>Surxondaryo viloyati</b>	2077,5	2077,5	765,5	765,5
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Termiz shahri</b>	6405,2	2508,7	926,2	536,0
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Bandixon</b>	81,5	38,5	844,1	558,3
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Denov</b>	2237,9	808,6	4633,8	739,7
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Angor</b>	926,2	536,0	844,1	558,3
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Boysun</b>	81,5	38,5	844,1	558,3
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	2237,9	808,6	4633,8	739,7

	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1563,7	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 397,5		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 655,5	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 463,3
<b>Qumqo'rg'on</b>			<b>Qiziriq</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1331,6	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 312,9		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 636,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 418,1
<b>Muzrabot</b>			<b>Oltinsoy</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1395,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 466,4		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1951,3	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1589,7
<b>Sariosiyo</b>			<b>Termiz</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 668,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 435,5		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2301,9	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 559,6
<b>Uzun</b>			<b>Sherobod</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2273,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1370,2			
<b>Sho'rchi</b>					

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2 trln. 608,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,3 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon, Uzun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Qiziriq (98,9 %), Boysun (94,7 %), Angor (92,1 %) hamda Termiz (89,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub'yektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Sherobod (30,9 %), Qumqo'rg'on (37,1 %), Denov (33,7 %), Jaqo'rg'on (37,7 %), Sho'rchi (44,2 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (42,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4086 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 724 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,7 % i) Termiz shahriga va 508 tasi (12,4 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 1 788 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 277 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 15,5 %) Denov tumanida, 213 tasi (11,9 %) Termiz shahrida tashkil etildi.


**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari**  
*2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga Termiz shahri (724 ta), Denov (508 ta), Sho'rchi (273 ta), Termiz (264 ta) hamda Qumqo'rg'on (251 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)*



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)*



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon tumanida (50 ta), Qiziriq tumanida (178 ta), Oltinsoy tumanida (199 ta), Angor tumanida (213 ta) hamda Muzrabot tumanida (224 ta) qayd etildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar  
va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish  
dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo'yicha 56,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 235 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 13,3 % ga kamaygan.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab  
chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2019- yil yanvar-dekabr</b>	<b>2020- yil yanvar-dekabr</b>
<b>Loyihalar soni, birlikda</b>	14	20
<b>Korxonalar soni, birlikda</b>	14	19
<b>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</b>	56,4	56,4
<b>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</b>	0,3	-
<b>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda</b>	271	235

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (76) 225-65-76